

Date: 25th February-2026

TA'LIM INTEGRATSIYALASHUVIDA PIRLS XALQARO BAHOLASH
DASTURIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI
TAKOMILASHTIRISH

Ilmiy rahbar Prof. **Elov.Z.**, Osiyo xalqaro universiteti

Tadqiqotchi **Ablayeva Khosiyat Otabek kizi**, Osiyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning matnni o'qish va tushunish darajasini xalqaro standartlar asosida aniqlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur tezisdagi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirishda PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ta'lim jarayonini integratsiyalash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tezisdagi qiyosiy tahlil va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanilgan. Ushbu usullar yordamida an'anaviy dars o'tish uslublari va PIRLS talablari o'rtasidagi farqlar aniqlanadi. Shuningdek, xalqaro baholash tizimidagi topshiriqlarni o'zbek ta'lim dasturlariga moslashtirish mexanizmlari o'rganiladi. PIRLS dasturini dars jarayoniga samarali tatbiq etish orqali o'quvchilarning nafaqat o'qish tezligi, balki matndagi yashirin ma'nolarni anglash darajasi ham rivojlanadi. Tezisdagi keltirilgan xulosalar boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari va soha mutaxassislari uchun amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: PIRLS dasturi, o'qish savodxonligi, ta'lim integratsiyasi, boshlang'ich sinf, baholash mezonlari, nazariy asoslar, metodik takomillashtirish.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi butun dunyoda katta o'zgarishlar davrini boshidan kechirmoqda. Endi darslarda shunchaki kitob o'qish yoki ma'lumotni yodlash yetarli emas. Asosiy maqsad o'quvchilarni hayotga tayyorlash va ularda matn bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu sababli, ta'lim integratsiyalashuvida PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimini integratsiyalash va o'quvchilarning o'qish savodxonligini xalqaro baholash dasturlari asosida rivojlantirish masalasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xalqaro miqyosda o'tkazilgan tadqiqotlarda o'quvchilarning matnni tushunish darajasi ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog'liqligi isbotlangan. Masalan, tadqiqotchi V. Mullis va uning hamkasblari tomonidan tayyorlangan hisobotlarda PIRLS dasturi o'quvchilarning axborotni qidirish, xulosa chiqarish va matndagi yashirin ma'nolarni tahlil qilish ko'nikmalarini qanday o'lchashi batafsil yoritilgan¹.

Mahalliy olimlardan N. Ismoilova va M. Abdullayeva o'z ishlarida xalqaro baholash dasturlarini o'zbek maktablari dars jarayoniga moslashtirish masalalarini ko'rib chiqqanlar. Ularning izlanishlari shuni ko'rsatdiki, darslarda integratsiyalashgan topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarning so'z boyligini oshiradi va ularni mustaqil

¹ Mullis, Ina V. S., et al. PIRLS 2021 International Results in Reading. Boston College: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.

Date: 25th February-2026

fikrlashga o'rgatadi². Shuningdek, so'nggi yillardagi pedagogik izlanishlarda ta'limni integratsiyalash o'quvchining bir vaqtning o'zida ham mantiqiy, ham ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi ta'kidlanadi.

PIRLS dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini tekshirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur yordamida bolalarning matnni nafaqat o'qishi, balki undagi asosiy mazmunni qanchalik tushunishi ham tahlil qilinadi. Ko'plab rivojlangan davlatlarda ushbu tizim ta'lim sifatini oshirishning asosiy vositasi sifatida qo'llaniladi. Mazkur maqolada PIRLS tizimini o'zbek ta'lim jarayoniga qanday qilib to'g'ri kiritish va uning nazariy asoslarini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqiladi.

Hozirgi kunda darslarda faqat nazariy bilim berish uslubidan voz kechilmoqda. Buning o'rniga o'quvchilarni matn ichidagi yashirin ma'nolarni topishga o'rgatishga ko'proq urg'u berilyapti. Ushbu jarayonda xalqaro baholash metodlaridan foydalanish darslarning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Asosiy qism. Ta'lim integratsiyasida PIRLS xalqaro baholash dasturidan foydalanish bir necha asosiy omillarga bog'liq. Bu omillar darsning qanday o'tilishi, o'qituvchining yondashuvi va o'quvchilarning matnni qanday qabul qilishini belgilab beradi. Quyida ushbu jarayonga ta'sir qiluvchi faktorlar va ularning hayotiy misollari keltiriladi.

1. Matnni tanlash va uning hayotiy mazmuni. O'quvchilar matnni shunchaki o'qimasligi, balki undagi voqealarni o'z hayoti bilan bog'lay olishi kerak. PIRLS tizimida matnlar ikki xil maqsadga yo'naltiriladi: badiiy zavq olish va ma'lumot qidirish. Agar tanlangan matn bolaning qiziqishlariga mos bo'lsa, u tushunishga ko'proq harakat qiladi. Darsda shunchaki "Tabiatni asrang" degan matn o'rniga, mahalla yoki maktab hovlisidagi daraxtlarni parvarish qilish haqidagi hikoyadan foydalanish;

- sinfda hayvonlar haqida dars o'tilayotganda, o'quvchiga o'zi bilgan it yoki mushukning xulq-atvori tasvirlangan matnni berish;

- biron-bir taomning pishirilish usuli (resept) haqidagi matnni o'qitish va undan kerakli mahsulotlar ro'yxatini ajratib olishni so'rash. Bunda bola ma'lumot qidirishni o'rganadi.

2. Savollar tuzish va mantiqiy fikrlashni rag'batlantirish. PIRLS topshiriqlari o'quvchidan faqat matnda bor narsani emas, balki "qatorlar orasidagi" yashirin ma'nolarni ham topishni talab qiladi. Bu jarayon o'quvchining fikrlash darajasini kengaytiradi. Masalan, "Tulki va turna" ertagini o'qigach, "Tulki nima yedi?" deb emas, balki "Tulki nima uchun shunday yo'l tutdi?" deb savol berish bolani sabab va oqibatni o'ylashga majbur qiladi. Matndagi qahramonning xafa bo'lgani haqida yozilmagan bo'lsa-da, uning xatti-harakatidan kelib chiqib: "Sizningcha, qahramon hozir qanday his-tuyg'ularni boshidan kechiryapti?" deb so'rash ham bolani fikrlashga undaydi.

3. O'qituvchining metodik tayyorgarligi va yondashuvi. O'qituvchi darsda faqat nazoratchi emas, balki yo'naltiruvchi bo'lishi lozim. Integratsiyalashgan darsda o'qituvchi bolalarga matn ichidan dalillarni topishni va o'z fikrini isbotlashni o'rgatadi. Masalan,

² Ismoilova, Nargiza. Xalqaro baholash dasturlari va ta'lim sifati: PIRLS tajribasi. Pedagogika jurnali, no. 4, 2023, pp. 45-52.

Date: 25th February-2026

o'qituvchi o'quvchiga "Sen bu qahramonni yomon deb aytyapsan, matndan uning yomonligini isbotlovchi jummalarni topib ber", deb vazifa berishi. Dars davomida turli xil diagrammalar yoki rasmlardan foydalanish, o'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib, bir xil matn bo'yicha har xil xulosalar chiqarishni o'rgatish bolalarda boshqalarning fikrini hurmat qilish va o'z qarashini himoya qilishni shakllantiradi.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, PIRLS dasturi asosida ta'limni integratsiyalash orqali biz nafaqat xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashga, balki fikrlash doirasi keng, tahliliy qobiliyatga ega avlodni tarbiyalashga erishamiz. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar va yondashuvlar boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarining samaradorligini oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida, milliy ta'lim tizimining jahon ta'lim standartlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, Muhayyo. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Yangi Nashr, 2022.
2. Ismoilova, Nargiza. Xalqaro baholash dasturlari va ta'lim sifati: PIRLS tajribasi. Pedagogika jurnali, no. 4, 2023, pp. 45-52.
3. Mullis, Ina V. S., et al. PIRLS 2021 International Results in Reading. Boston College: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. PIRLS xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha metodik qo'llanma. Toshkent, 2021.
5. Schleicher, Andreas. Educating Learners for Their Future: The Importance of International Assessments. OECD Publishing, 2020.

